



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA KITOBXONLIK TADBIRLARI

Zokirjon Isaqov

Qo‘qon DPI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Niyozmatov Abdullajon

Furqat tumani IM o‘qituvchisi

Niyozmatova Umidaxon

O‘zbekiston tumani, 67-maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinflarda kitobxonlik tadbirlari o‘tkazish metodikasi haqida fikr yuritilib, uni tashkil etish yuzasidan kerakli tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: “Yosh kitobxon”, kitobxonlik, o‘qish savodxonligi, integratsiya, nutq madaniyati.

Аннотация: В статье рассматривается методика проведения читательской деятельности в начальных классах и даются необходимые рекомендации по ее организации.

Ключевые слова: «Юный читатель», чтение, читательская грамотность, интеграция, культура речи.

Abstract: Abstract The article discusses the methodology of conducting reading activities in primary classes, and gives the necessary recommendations for its organization.

Key words: "Young reader", reading, reading literacy, integration, speech culture.



Kitob zamonlar osha bilimlarni ajdodlardan avlodlarga beshikast yetkazuvchi umrboqiy karvondir. Kitob – hayot yo‘llarimizni yorituvchi so‘nmas nur, mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, bizga har qanday vaziyatda ham hamroh bo‘luvchi sodiq do‘stdir.

Inson ma’naviyatini yuksaltirishda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo‘q. Shu sabab, azal-azaldan ma’rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o‘qishga, undan ilm-u odob sirlarini o‘rganishga chorlab kelgan.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarimiz e’tiborini televizor, kompyuter va turli xil gadjetlardan kitob o‘qish uchun yo‘naltirish eng dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Farzandlarimizning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini qancha erta rivojlantirishga erishsak, yurtimiz kelajagi uchun shuncha nafimiz tekkan bo‘ladi. Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 13-sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori hamda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbus ijrosini ta’minlash maqsadida kitobxonlikka doir “Yosh kitobxon”, “Yosh kitobxon oila”, “Zukko kitobxon”, “Lider kitobxon” “IKAR” kabi bir qator respublika tanlovlari joriy etilgan.

Shulardan “Yosh kitobxon” tanlovi yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan respublikamizning eng yirik tanlovi hisoblanadi. Tanlovda har yili 300 ming nafarga yaqin yoshlar ishtirok etadilar. Bu tanlovdan ko‘zlangan maqsad esa bolalar va yoshlar o‘rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish, ularning intellektual salohiyati va ma’naviy saviyasini yuksaltirishdan iborat.[1]

O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish uchun ushbu tanlovning maktab miqyosida boshlang‘ich sinflar uchun o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan variantini tuzib chiqishga qaror qildik. Bundan maqsad esa o‘quvchilarni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash, ularning bilim saviyasi va dunyoqarashini yuksaltirish, jadjigina qalbida o‘qishga, kitobga mehrini yanada oshirishdir.



“Yosh kitobxon” tanlovining boshlang‘ich sinflar miqyosida o‘tkazilishi bir qator afzalliklarga egaligi bilan boshqa ishlardan ajralib turadi:

- ✓ o‘qish savodxonligi darsligida berilgan mavzularni to‘liq o‘zlashtirish imkonini beradi;
- ✓ o‘quvchilarda kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishni oshiradi;
- ✓ tanlov va unga tayyorgarlik jarayoni bevosita o‘quvchining nutq madaniyatini oshirishga xizmat qiladi;
- ✓ buyuk allomalarimiz va darslikdagi asar mualliflari bilan yaqindan tanishadi;
- ✓ o‘quvchilarda hozirjavoblik, kurashuvchanlik qobiliyatlari rivojlanadi;
- ✓ kichik yoshdan mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ✓ o‘quvchilarda bir vaqtning o‘zida kreativlik, kooperativlik, kommunikativlik, tanqidiy fikrlash kabi malakalarni ya’ni 4 K modelini shakllantirishga yordam beradi.

Maktab miqyosida o‘tkaziladigan “Yosh kitobxon” ko‘rik-tanlovi boshlang‘ich sinflarda 2 bosqichda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. Saralash bosqichi.
2. Asosiy tanlov.

Saralash bosqichi o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda test yoki tez o‘qish shaklida o‘tkaziladi. Bu borada 1- va 2-sinflarda asosan bolalarning o‘qish tezligini aniqlash orqali, 3-4-sinflarda esa test metodi orqali ishtirokchilarni saralab olish mumkin. Ikkinchi bosqichga o‘tgan o‘quvchilar soni uch nafardan o‘n nafargacha bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi bosqichga o‘tgan o‘quvchilar asosiy tanlov –“Yosh kitobxon” tanlovi ishtirokchisiga aylanadi. Ushbu tanlov “Yosh kitobxon” Respublika tanloviga o‘xshab beshta shart asosida o‘tkazdiriladi. Ular:

- 1-shart. Badiiy asar bilimdoni
- 2-shart. Buyuk mutafakkir va adib
- 3-shart. Tezkor savol-javob



4-shart. She'riyat

5-shart. Erkin mavzu

Maktab miqyosida boshlang'ich sinflarda o'tkaziladigan tanlov shartlari mazmuni boshlang'ich sinflar yosh va bilim darajasiga moslashtirildi. Respublika tanlovida shartlar turli adabiyotlar yuzasidan tuzilgan savollardan iborat bo'lsa, bu kichik yoshdagi o'quvchilar uchun tuzilgan savollar faqatgina o'qish kitobidan tuzilgan. Aynan "Badiiy asar bilimdoni", "Tezkor savol-javob" va "She'riyat" shartlarida O'qish savodxonligi darsligida berilgan manbalardan foydalaniladi. "Buyuk mutafakkir va adib" va "Erkin mavzu" shartlari o'quvchilarning darslikdan tashqari mustaqil izlanishlari uchun kiritilgan bo'lib, bu shartlar kitobxonlarda yashirin turli xildagi qobiliyatlarini namoyon qilish uchun imkon beradi. Har bir shart uchun ishtirokchi to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball yuz ballni tashkil qiladi. Shunday qilib bir ishtirokchi beshta shart mobaynida maksimal besh yuz ballga ega bo'lishi mumkin.

Tanlov jarayonida shaffoflikni ta'minlash maqsadida kamida uch kishidan iborat hakamlar jamoasi ishtiroki ta'minlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Hakamlar hay'ati tarkibida albatta, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, ona tili va adabiyot yoki tarix fani o'qituvchilari hamda maktabning kutubxona mudirasining bo'lishi tanlovning nufuzini yanada oshiradi. Har bir shart uchun kitobxon o'quvchilar alohida-alohida baholanadi va oxirida hakamlar qo'ygan ballarning o'rtachasi hisoblanib, qatnashchilar o'rinlari e'lon qilinadi.

Ishtirokchilarni o'tkazilayotgan tanlov nizomi bilan tanlovdan bir necha kun avval tanishtirib, savollar yo'nalishini tushuntirib qo'yish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bilan siz tanlov jarayonida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarni oldini olgan va o'quvchilaringizning tanlovga oson va maqsadli tayyorlanishlariga erishgan bo'lasiz.

Boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan "Yosh kitobxon" tanlovini o'tkazish bo'yicha ushbu tavsiya bugungi kundagi amaldagi darsliklar va o'quv dasturi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Kitobxonlik tanlovlari nafaqat



boshlang'ich sinflardagi o'qish savodxonligi darslarida o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlashga, balki, o'quvchilar o'rtasida kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqishni oshishiga ham sabab bo'ladi.

Bundan tashqari bu kabi tanlovlar o'quvchilarning ma'naviy olamini boyitish, dunyoqarashini kengaytirish, ajdodlarimiz bilan faxrlanish va vatanga muhabbat hissini uyg'otishga sabab bo'ladi.

“Yosh kitobxon” tanlovi o'quvchi va o'qituvchilarni yanada yaqinlashtiradi. Boshlang'ich sinflarda bunday tanlov o'tkazish albatta, o'quvchilar uchun og'irlik qiladi deb o'ylarsiz. Va siz haqsiz. Buni yolg'iz siz, yoki o'quvchining o'zi uddalay olmaydi. Tanlov o'tkazish va unga tayyorgarlik davomida albatta siz ota-onalarning yordamiga muhtoj. Shaxsiy tajribamdan, shuni angladimki, bu tanlov o'quvchi, o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi aloqalarni yaxshilaydi, ularni birgalikda harakat qilish orqali ko'plab yutuqlarga erishish mumkinligiga ishonтира oladi. Demak, bu tanlovni biz nafaqat ta'limiy balki, tarbiyaviy ahamiyati haqida ham bimalol so'zlay olamiz va o'zimiz kabi ilm ahllariga qo'rqmay tavsiya qila olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017-yil 12-yanvardagi Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi Farmoni
2. “Yosh kitobxon” tanlovini tashkil etish va o'tkazish to'g'risidagi Nizom. Toshkent-2023
3. Aydarova U.B., Azizova N.K. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. I qism. –Toshkent:”Novda Edutainment”, 2023. –80 b.



4. Inoyatov U. Zamonaviy darsliklar, o'quv-metodik majmualar, elektron didaktik vositalarni ishlab chiqishga innovatsion yondashuv dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2018. – №3. – B.12-13.
5. Uralov A. "Interfaol ta'lim" – Guliston, 2018.
6. . Исақов, 3.С., & Бозоров О. (2023, June). TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI MUAMMOLARI. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 6, pp. 225- 228).
7. www.yoshlarportali.uz
8. www.Kitobxon.uz